

**2024-2025 O'quv yili 3-V Moliya va moliyaviy texnologiyalar (o'zb) va 3-B, D Buxgalteriya hisobi va audit (o'zb)
mutaxassisliklari uchun «Soliqlar va soliqqa tortish» fanidan**

Yakuniy nazorat savollari

1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining zarurligi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
2. 2024-yilda Soliq tizimidagi o'zgarishlar.
3. Aktsiz markalari haqida tushuncha.
4. Aktsiz solig'i bazasi va soliq stavkalari (2024-yil).
5. Aktsiz solig'i ob'ekti va bazasi.
6. Aktsiz solig'i to'lovchilari.
7. Aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.
8. Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarida tutgan o'rni.
9. Aktsiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash.
10. Amaldagi Soliq kodeksi bo'yicha soliq tamoyillari.
11. Aylanmadan olinadigan soliqning obyekti va yalpi tushum tarkibi.
12. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
13. Aylanmadan olinadigan soliq bazasi.
14. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari (2024-yil).
15. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.
16. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish ob'ekti.
17. Aylanmadan olinadigan soliqning to'lovchilari.
18. Import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi.
19. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bazasi.
20. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari (2024-yil).
21. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari va soliq solish ob'ekti.
22. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar.
23. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida mehnatga haqi to'lash tarzidagi daromadlar.
24. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida moddiy naf tarzidagi daromadlar.
25. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida mulkiy daromadlar.
26. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida soliq solinmaydigan daromadlar.
27. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etish.
28. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.
29. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha amaldagi imtiyozlar va soliq stavkalari (2024-yil).
30. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.
31. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi.
32. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari.
33. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i ob'ekti va bazasi.
34. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari(2024-yil).
35. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i to'lovchilari.
36. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.
37. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati.
38. O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliq turlari.
39. Qo'shilgan qiymat solig'i bazasi.
40. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.
41. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solish ob'ekti.
42. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari.
43. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar.
44. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish.
45. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma.
46. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish.
47. Qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
48. Rezident va norezident jismoniy shaxslar haqida tushuncha.
49. Soliq elementlari.
50. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining soliq amaliyotiga joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati.
51. Soliq stavkalarining turlari (progressiv, regressiv, proportsional).
52. Soliq tushunchasi, vazifalari, uning belgilari va iqtisodiy mohiyati
53. Soliqlarning asosiy funksiyalari.
54. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bo'linishi.
55. Soliqlarning soliq solish ob'ektiga ko'ra bo'linishi.
56. Soliqlarning vazifalari va elementlari.
57. Soliqlarning zaruriyati va byudjet daromadlaridagi ulushi.
58. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi.
59. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bazasi.
60. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari.
61. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari (2024-yil).
62. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lash tartibi.
63. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ida jami daromad tushunchasi.
64. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ida xarajatlar tushunchasi.
65. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar.

66. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan chegiriladigan xarajatlar.
67. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi.
68. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
69. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq solish ob'ekti.
70. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining to'lovchilari.
71. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bazasi va uni aniqlash tartibi.
72. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha amaldagi imtiyozlar va soliq stavkalari (2024-yil).
73. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchilari va soliq ob'ekti.
74. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
75. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning byudjet daromadlar qismida tutgan o'rni (2024-yil).
76. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i bo'yicha amaldagi soliq imtiyozlari.
77. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i ob'ekti va soliq bazasi.
78. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari (2024-yil).
79. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i to'lovchilari.
80. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi.
81. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lash tartibi.
82. Nukus shahrida joylashgan «Mariyam-fortuna» MChJning 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 020,0 mln. so'mlik ko'chmas mulk binolari mavjud. Ushbu ko'chmas mulklarning yil oxiriga o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlang (Eskirish qiymati 5 %).
83. Xo'jayli tumanida faoliyat yuritayotgan «Stroy bazis» MChJ qurilish korxonasida o'rtacha yillik qoldiq qiymati 920,0 mln. so'm bo'lgan ko'chmas mulki bor. Shuningdek, korxonada qurilish loyiha-smeta hujjatlarida 245,0 mln. so'mlik belgilangan muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlari mavjud. Jamiyatning 2024-yildagi mol-mulk solig'ini va to'lash tartibini aniqlang (Jamiyat aylanmadan soliq to'lovchisi hisoblanmaydi).
84. «Texno-Stroy» MChJga tegishli bo'lgan ma'muriy binoning qiymati 2024-yil 1-yanvar holatiga 720,0 mln. so'mni tashkil etadi. 2024-yilda jamiyat to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i so'mmasini va to'lash tartibini aniqlang (Jamiyat aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi hisoblanadi) (5% eskirish qiymati).
85. «Maxi-aloqa» MChJga tegishli bo'lgan aloqa va elektr uzatish liniyalari binosining 2024-yil uchun o'rtacha yillik qoldiq qiymati 425,0 mln. so'mni tashkil etadi. Jamiyat to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i summasini aniqlang.
86. «Pana-stroy» MChJga tegishli ko'chmas mulklarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati 1 250,0 mln. so'm. Shuningdek, jamiyat qoshida,
- madaniyat saroyining binosi 130,0 mln. so'm;
 - jismoniy tarbiya va sport binosi 120,0 mln. so'm;
 - ijtimoiy ta'minot obyektlari 150,0 mln. so'm;
 - sog'liqni saqlash punkti 100,0 mln. so'm ko'chmas mulkiga ega.
- 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini hisoblang.
87. Nukus tumanida faoliyat yurituvchi «Nukus agro fish» MChJning 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 080,0 mln. so'mlik ko'chmas mulk binolari mavjud. Ushbu ko'chmas mulklarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlang (Eskirish qiymati 5 %).
88. Taxiotosh tumanida faoliyat yuritayotgan «Inter-invest-qurilis» MChJ qurilish korxonasida o'rtacha yillik qoldiq qiymati 630,0 mln. so'm bo'lgan ko'chmas mulki bor. Shuningdek, korxonada qurilish loyiha-smeta hujjatlarida 180,0 mln. so'mlik belgilangan muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlari mavjud. Jamiyatning 2024-yildagi mol-mulk solig'ini va to'lash tartibini aniqlang (Jamiyat aylanmadan soliq to'lovchisi hisoblanadi).
89. «Nukus konstruksiya qurilis» MChJga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish binosining qiymati 2024-yil 1-yanvar holatiga 600,0 mln. so'mni tashkil etadi. 2024-yilda jamiyat to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i summasini va to'lash tartibini aniqlang (Jamiyat aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi hisoblanmaydi) (5% eskirish qiymati).
90. «GPON-aloqa» MChJga tegishli bo'lgan aloqa va elektr uzatish liniyalari binosining 2024-yil uchun o'rtacha yillik qoldiq qiymati 325,0 mln. so'mni tashkil etadi. Jamiyat to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i summasini aniqlang.
91. «Korkem-shanaraq» MChJga tegishli ko'chmas mulklarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati 925,0 mln. so'm. Shuningdek, jamiyat qoshida,
- madaniyat saroyining binosi 125,0 mln. so'm;
 - jismoniy tarbiya va sport binosi 120,0 mln. so'm;
 - ijtimoiy ta'minot obyektlari 180,0 mln. so'm ko'chmas mulkiga ega.
- 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini hisoblang.
92. Nukus shahri «Shimbay guzari» MFYda yashovchi A. Karimovga tegishli turor joyning kadastr qiymati 268,0 mln. so'mni, umumiy maydoni 185 m² ni tashkil etadi. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini va to'lash tartibini aniqlang.
93. Chimboy tumani «Berdax» MFYda yashovchi fuqaro B. Seytimbetovga tegishli turor joy Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinmagan. Turor joy yangi qurilgan uy-joy hisoblanadi. Ko'chmas mulkning umumiy maydoni 225 m² ni tashkil etadi. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini hisoblang.
94. Kegeyli tumani «Aqtuba» MFY da joylashgan fuqaro K. Azatovga tegishli savdo do'konining kadastr qiymati 277,0 mln. so'mni, umumiy maydoni 125 m² ni tashkil etadi. 2024-yilda fuqaro mazkur noturor joy bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini hisoblang.
95. Nukus shahrida B. Allanazarovning yashash uchun mo'ljallanmagan obyekti ushbu obyektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda (2024-yil 1-yanvarga qadar) qurilishi tugallanmagan. 2024-yilda fuqaro to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini hisoblang.

96. Nukus tumani «Kerder» MFYda yashovchi pensioner A. Bazarbaevaga tegishli turor joyning kadastr qiymati 128,0 mln. so'mni, umumiy maydoni 160 m² ni tashkil etadi. 2024-yil uchun pensioner to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i hamda imtiyoz summasini hisoblang.

97. Taxiatosh tumani «Keneges» MFYda yashovchi pensioner I. Esamuratovga tegishli turor joyning kadastr qiymati 200,0 mln. so'mni, umumiy maydoni 250 m² ni tashkil etadi. 2024-yil uchun pensioner to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i, imtiyoz summasi va to'lash tartibini aniqlang.

98. Beruniy tumani «Buston» MFYda yashovchi I. Kabulovga tegishli turor joyning kadastr qiymati 378,0 mln. so'mni, umumiy maydoni 365 m² ni tashkil etadi. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk solig'ini va to'lash tartibini aniqlang.

99. Amudaryo tumani «Navoiy» MFYda yashovchi T. Sarsenova o'ziga tegishli umumiy maydoni 220 m², kadastr qiymati 135,0 mln. so'm bo'lgan turar joyini 2024-yil 21-mart kuni fuqaro S. Kenjaevga sotgan. Ushbu mulk bo'yicha avvalgi va yangi mulk egalari tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'ini hisoblang.

100. Kegeyli tumani «Abat makan» MFYda yashovchi E. Abatov o'ziga tegishli umumiy maydoni 180 m², kadastr qiymati 180,0 mln. so'm bo'lgan turar joyini 2024-yil 2-aprel kuni fuqaro G. Bazarbaevga sotgan. Ushbu mulk bo'yicha avvalgi va yangi mulk egalari tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'ini hisoblang.

101. Beruniy tumani «Buston» MFYda yashovchi fuqaro A. Farxadov 2024-yil aprel oyida pensiyaga chiqqan. Uning turor joyi umumiy maydoni 55 m² ni, kadastr qiymati 75,0 mln. so'mni tashkil etadi. Ushbu pensionerga qachondan imtiyoz qo'llaniladi va qancha miqdorda soliq to'laydi?

102. Nukus shahri «Ata makan» MFYda joylashgan bitta ma'muriy binoning jami yer maydoni 2,3 ga ni tashkil etadi. Shundan, «Leon-broker» MChJ 1,6 ga va «Flower-style» MChJ 0,7 ga yerlardan o'z ehtiyojlari uchun ijara huquqi asosida foydalanib kelingan yuridik shaxslarga jami bino uchun yiliga qancha yer solig'i hisoblanadi (1 ga uchun soliq stavkasi: 30,8 mln; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,87)?

103. Shumanoy tumani «Karabayli» MFYdan ro'yxatdan o'tgan «Ishbilarmon ayol» O'zbekiston ishbilarmon ayollar uyushmasi notijorat tashkiloti hisoblanib, unga hududdan 0,25 ga yer maydoni ajratilgan. Ushbu uyushma 0,15 ga yer maydonidan tijorat faoliyatida shug'ullanadi. 2024-yil uchun uyushma to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i va imtiyoz summasini hisoblang (1 ga uchun soliq stavkasi: 28 mln; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,82).

104. Nukus tumani «Qutanko'l» MFYdan ro'yxatdan o'tgan «Turan oypati» MChJga tegishli qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy yer maydoni 1,32 ga ni tashkil etadi. 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini va to'lash tartibini aniqlang (Jamiyat aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi hisoblanmaydi). (1 ga uchun soliq stavkasi: 28 mln; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,9).

105. Kegeyli tumanida joylashgan «Erjanov Utemurat» fermer xo'jaligining sug'oriladigan 107,87 ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoni mavjud. 2024-yil uchun fermer xo'jaligi to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang (1 ga yerning normativ qiymati: 4 757 400 so'm).

106. Taxtakopir tumanida faoliyat ko'rsatayotgan «Qarateren-farms» fermer xo'jaligining sug'oriladigan 150 ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlari mavjud. 2024-yil uchun xo'jalik to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini va to'lash tartibini aniqlang (1 ga yerning normativ qiymati: 3 750 000 so'm).

107. Chimboy tumanida faoliyat ko'rsatayotgan «Azamat Usnatdinov» fermer xo'jaligining sug'oriladigan 140 ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlari mavjud. 2024-yil uchun xo'jalik to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini va to'lash tartibini aniqlang (1 ga yerning normativ qiymati: 5 850 000 so'm).

108. To'rtko'l tumani «O'zbekiston» MFYdan ro'yxatdan o'tgan «Sherxon» MChJga tegishli qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy yer maydoni 0,85 ga ni tashkil etadi. 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini va to'lash tartibini aniqlang (Jamiyat aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi hisoblanadi). (1 ga uchun soliq stavkasi: 30,8 mln; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,9).

109. Nukus shahri «Qutli makan» MFYdan ro'yxatdan o'tgan «Nukus-Protest» MChJda jami 36 nafar xodim ishlaydi. Shundan yagona ishtirokchilari 25 nafar xodim nogironlarni tashkil etgan. Nogironlarga protestlarni ishlab chiqarish uchun jamiyatga 0,65 ga yer maydoni ajratilgan. 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang. (1 ga uchun soliq stavkasi: 30,8 mln; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,87).

110. Nukus tumani «Qutanko'l» MFYdan ro'yxatdan o'tgan «Aral-abat» MChJga tegishli qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy yer maydoni 1,2 ga ni tashkil etadi. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda esa 0,9 ga etib belgilangan. 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang (1 ga uchun soliq stavkasi: 28 mln; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,9).

111. Nukus shahri «Bestobe» MFYda yashovchi fuqaro F. Bekanovga tegishli turor joyning umumiy yer maydoni 5 sotix, kadastr qiymati 180,0 mln. so'mni tashkil qiladi. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini va to'lash tartibini aniqlang (1 m² uchun soliq stavkasi: 286 so'm; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,88).

112. Nukus tumani «Arbashi» MFYdan fuqaro I. Genjemuratovga savdo shaxobchasini qurish uchun 0,09 ga yer ajratilgan. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang (1 ga uchun soliq stavkasi: 28 mln.; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,9).

113. Beruniy tumani «Shabboz» MFYda fuqaro T. Umatovga tegishli turor joyning umumiy maydoni 18 sotixni tashkil etadi. Kadastr hujjatida esa yer maydoni 11 sotix etib belgilangan. Qolgan yerdan hujjatsiz foydalanmoqda. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang (1 m² uchun soliq stavkasi: 286 so'm; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,7).

114. Muynoq tumani «Tik ozek» MFYda fuqaro X. Sobirovga tegishli turor joyning umumiy maydoni 13 sotixni tashkil etadi. Kadastr hujjatida esa yer maydoni 6 sotix etib belgilangan. Qolgan yerdan hujjatsiz foydalanmoqda. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang (1 m² uchun soliq stavkasi: 260 so'm; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,7).

115. Taxtakopir tumani «Aydin jol» MFYdan fuqaro A. Imatovga 2024-yil 18-aprel kuni uy-joy qurish uchun 7 sotix yer uchastkasi ajratilgan. 2024-yil uchun fuqaro to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang (1 m² uchun soliq stavkasi: 260 so'm; Xalq deputatlari tomonidan qo'llanilishi belgilangan koeffitsiyent: 0,75).

116. To'g'ri soliqlarning soliq tizimidagi ahamiyati va ularni takomillashtirish.
117. Soliq tizimining iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish.
118. O'zbekiston Respublikasida egri soliqlarni undirish amaliyoti va uni takomillashtirish masalalari.
119. Mamlakat eksport faoliyatini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini oshirish masalalari.
120. Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantiruvchi manbai sifatida.
121. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va ularning moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.
122. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash tartibi va byudjetga to'lash muddatlari.
123. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani hisoblash uslubiyati.
124. Aylanmadan olinadigan soliqning to'lovchilari tarkibi va ularni aniqlash mezonlari.
125. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi.
126. Qo'shilgan qiymat solig'ini bo'yicha manfiy qoldiqni qaytarish amaliyoti.
127. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblash tartibi.
128. Aksiz solig'i bo'yicha soliq stavkalari va ularning guruhlanishi.
129. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilish tartibi.
130. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq bazasini aniqlash tartibi.
131. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ob'ekti va ob'ekt sifatida qaralmaydigan yer uchastkalari.
132. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash muddatlari.
133. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalarini belgilashda koeffitsientlarni qo'llash tartibi.
134. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjet daromadlaridagi salmog'i hamda ularning o'zgarish sabablari.
135. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar: iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlanishi; byudjetga tushishiga ko'ra guruhlanishi; soliq to'lovchilari nuqtai nazaridan guruhlanishi.
136. Foyda solig'ining soliq solish ob'ekti. Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash.
137. Aylanmadan soliq stavkalarining tabaqalanish mezonlari.
138. Yalpi tushum va uning tarkibi: mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum; asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar; moliyaviy faoliyatdan daromadlar; favqulodda daromadlar.
139. Soliq imtiyozlari tarkibi: soliq solinmaydigan daromadlar; jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish; ayrim toifadagi soliq to'lovchilarning jami daromadini kamaytirish.
140. Jami yillik daromad tarkibi: mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar; jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari; moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlar.
141. Soliq solinadigan aylanma tarkibi: tovarning realizatsiyasi bo'yicha aylanma; ishlarning realizatsiyasi bo'yicha aylanma; xizmatlarning realizatsiyasi bo'yicha aylanma.
142. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq ob'ektining tarkibi: tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo'yicha aylanmalari; tovarlarning importi bo'yicha aylanmalar.
143. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aksiz solig'i.
144. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida import qilinadigan aksizosti mahsulotlaridan soliq undirish tartibi.
145. Soliqqa tortiladigan mol-mulk bo'yicha o'rtacha qoldiq qiymatni aniqlash uslubiyati.
146. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirish tartibi.
147. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini byudjetga to'lash tartibi.
148. Yer solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar.
149. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yer solig'ini hisoblash va uni byudjetga undirish tartibi.
150. Yer uchastkalarini ijaraga olish va mulk huquqi.
151. Ijtimoiy soliq bazasi va stavkalari (2024-yil).
152. Ijtimoiy soliq to'lovchilari, soliq ob'ekti va bazasi.
153. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
154. Mahalliy yig'imlarni to'lash tartibi.
155. Mahalliy yig'imlarning amaldagi turlari va belgilangan stavkalari (2024-yil).
156. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlash tartibi va soliq stavkalari (2024-yil).
157. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish tartibi va to'lash tartibi.
158. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari va soliq ob'ekti.
159. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.
160. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasi va soliq stavkalari (2024-yil).
161. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
162. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari va soliq solish ob'ekti.
163. Suv o'lchash asbobining ko'rsatishi bo'yicha korxonaning 2024-yilda sarflagan suv hajmi 2 540 m³ ni tashkil etgan. Suv «Suvsoz» DUK tomonidan etkazib beriladi. «Suvsoz» DUK ning ma'lumotlariga ko'ra, suv quvurlariga kelib tushadigan suv hajmining nisbati quyidagicha:
- Jami suv hajmi – yer usti manbalaridan – 90,8% (265 so'm); yer osti manbalaridan – 9,2% (320 so'm).
- 2024-yil uchun korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblang.
164. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi «Sharqsharobsavdo» AJi «Bliss» ichimligini ishlab chiqaradi. Jamiyatning ishlab chiqarish hajmi 550 000 litrni tashkil etadi.
- Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining suv o'lchash asbobi ko'rsatkichi asosida aniqlangan umumiy hajmi yiliga 850 m³ ni tashkil etadi. Undan tashqari jamiyat hududida o'rnatilgan drenaj tarmoqlari yordamida jamiyat territoriyasidagi yerlarga zararli ta'sirning oldini olish uchun 500 m³ suv chiqazilib, bu suvdan 250 m³ i texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan. 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi va to'lash tartibini aniqlang (yer usti – 90,8 % (570 so'm); yer osti – 9,2% (680 so'm)).
165. Nukus shahrida faoliyat yurituvchi avtomobil yuvish korxonasining umumiy sarflagan suvi limiti 5 850 m³ ni tashkil etgan. Shundan 4 350 m³ i yer ostidan nasos orqali, 1 500 000 litr vodoprovod tarmog'idan olingan. Mazkur korxonaning yil

yakuniga ko'ra yer osti manbalaridan ishlatgan suv hajmi 150 m³ ga oshganligi ma'lum bo'ldi. 2024-yil uchun korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblang.

166. Nukus tumanida faoliyat yurituvchi avtomobil yuvish korxonasining umumiy sarflagan suvi limiti 3 650 m³ ni tashkil etgan. Shundan 3 150 m³ i yer ostidan nasos orqali, 500 000 litr vodoprovod tarmog'idan olingan. Mazkur korxananing yil yakuniga ko'ra yer osti manbalaridan ishlatgan suv hajmi 350 m³ ga oshganligi ma'lum bo'ldi. 2024-yil uchun korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni va to'lash tartibini aniqlang.

167. Suv o'lchash asbobining ko'rsatishi bo'yicha Qonliko'l tumanida joylashgan korxonaning 2024-yilda sarflagan suv hajmi 1 850 m³ ni tashkil etgan. Suv «Qoraqalpoq suv ta'minoti» MChJ tomonidan etkazib beriladi. «Qoraqalpoq suv ta'minoti» MChJning ma'lumotlariga ko'ra, suv quvurlariga kelib tushadigan suv hajmining nisbati quyidagicha:

Jami suv hajmi – yer usti manbalaridan – 84% (265 so'm); yer osti manbalaridan – 16% (320 so'm).

2024-yil uchun korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblang.

168. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi «Shaharsharobsavdo» AJi «Dena» ichimligini ishlab chiqaradi. Jamiyatning ishlab chiqarish hajmi 850 000 litrni tashkil etadi.

Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining suv o'lchash asbobi ko'rsatkichi asosida aniqlangan umumiy hajmi yiliga 1 200 m³ ni tashkil etadi. Undan tashqari jamiyat hududida o'rnatilgan drenaj tarmoqlari yordamida jamiyat territoriyasidagi yerlarga zararli ta'sirning oldini olish uchun 450 m³ suv chiqazilib, bu suvdan 180 m³ i texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan. 2024-yil uchun jamiyat to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi va to'lash tartibini aniqlang (yer usti – 90,8 % (570 so'm); yer osti – 9,2% (680 so'm)).

«Moliya» kafedrası mudiri:

K. Daniyarov

Fan o'qituvchisi:

B. Sarsenbaev